IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

FRANS KAFKANING “QAL’A” ASARI TARJIMASIDA QO’LLANILGAN BA’ZI METAFORIK BIRIKMALAR TAHLILI

Ruxsora Toshpo‘latova Nizomiddin qizi
Navoiy innovatsiyalar universiteti 1-bosqich magistr talabasi
E-mail: ruxsortoshpulatova22@gmail.com
+99897-228-12-26
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20390667

Annatotsiya: Jahon tilshunosligi va o‘zbek adabiyotida metaforik iboralardan yozuvchilar mahoratla foydalanishadi. Metaforik birikmalar asar qahramonlarining holatini hissiyotlarini yanada yaqqol ko‘rsatib berish uchun keng qo‘llaniladi va bu birikmalar har bir xalqning madaniyatidan kelib chiqib turlicha tasniflanadi. Maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, asarlarda foydalinayotgan metaforik birikmalar har biri ma’nosi o‘zgacha bo‘lib, ularni falsafiy va tarjima asarlarda o‘rni beqiyos. Tadqiqotning maqsadi, metaforik birikmalarni tarjima jarayonida ma’no jihatdan to‘g‘ri tarjima qila olish va har bir birikmani o‘z o‘rnida qo‘llay olishni tahlil qilish. Tadqiqot jarayonida metodlarning tahlil va induksiya usullaridan foydalaniladi. Maqolaning maqsadi, falsafiy asarlarda uchraydigan metaforlarni tahlil qilish va ma’nolarini izohlash.

Kalit so‘zlar: Frans Kafka, qal’a, metafora, tarjima, metafora turlari

ANALYSIS OF SOME METAPHORICAL EXPRESSIONS USED IN THE TRANSLATION OF FRANZ KAFKA’S “THE CASTLE”

Annotation. In world linguistics and Uzbek literature, authors skillfully employ metaphorical expressions. Metaphoric combinations are widely used to vividly convey the condition and emotions of literary characters, and these expressions are classified differently depending on each nation’s cultural background. The relevance of this article lies in the fact that every metaphorical unit used in literary works carries a unique meaning, and their role in philosophical and translated texts is particularly significant.The aim of the study is to accurately interpret metaphorical expressions in the translation process and to analyze the appropriate use of each expression in context. Analytical and inductive methods are applied throughout the research. The primary objective of the article is to examine metaphors commonly found in philosophical works and to clarify their meanings.

Key words: Franz Kafka, castle, metaphor, translation, metaphoric types

Hozirgi globallashuv davrida har bir sohada rivojlanish bo’lgani kabi tarjima sohasida ham ancha yangiliklar bo‘lmoqda. Tarjima qilish jarayonida har bir so‘z va iboralar izchil bog‘lanishi va ularning matndagi ma’nosi to‘g‘ri tanlab olishi juda muhim. Tarjimonlar milliy va xorijiy madaniyatlar mutanosibligini ko‘rib chiqqan holatda, ko‘chma ma’noli so‘zlarni to‘g‘ri o‘rinlarda, to‘g‘ri ma’nolarda qo‘llashga harakat qilishadi. Ko‘chma ma’noli so‘zlar ham o‘z navbatida turli guruhlarga bo‘linadi. Ulardan biri metafora bo‘lib, u insonlarni, buyumlarni, harakatlarni, holatlarni bir-biriga o‘xshatish uchun xizmat qiladi. Ayni metaforalar so‘zlarni, gaplarni yanada tushunarli, rang-barang ko‘rsatish va emotsional tasvirini kuchaytirish kabi

vazifalarni bajaradi. Metaforalardan nafaqat tilshunoslikda, balki adabiyotshunoslikda ham yozuvchilarimiz keng qo‘llab kelishadi. Bu esa asarlardagi badiiy-emotsional tasvirni yanada boy ko‘rsatib, qahramon hislari va xarakteriga o‘ziga xoslik baxsh etadi.

Adabiyotlar tahlili va metadologiya

Asarlarimiz va nutqimiz boyligini, rango-rangliligini ko’rsatish uchun biz metaforalardan juda ko’p foydalanamiz. Metaforalar yillar davomida shakllangan madaniyatimizni va urf-odatlarimizni o‘zida mujassam qilgan so‘z birikmalari deya olamiz. Chunki metaforalar xalqimiz tili shakllangan birikmalardan iborat. Masalan, kompyuter oynasi yoki sichqonchasi, ko‘chaning boshi, osmonning yoshi kabi so‘zlar insonlarning atrofidagi hodisalar va shakllarning o‘xshatishi orqali hosil bo‘lgan. Metafora so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib,”metaphor”-ko‘chish demakdir. Bunda bir narsaning boshqa narsa bilan o‘zaro o‘xshash jihatlarini ko‘chirish tushuniladi[1]. Ingliz olimlari G.Lakoff and M. Johnsen ko‘chish turiga qarab metaforalarni 3 turga bo‘lgan. Bular: yo‘nalish metaforalari(orientation), ontologik metaforalar(ontological) va jonlantirish(personification) metaforalaridir. Ushbu olimlar kognitiv metaforalarni “Metaphors we live by” asarida tahlil qilgan holda ularni 3 turga bo‘lishgan va har bir turga misollar keltirib tahlil qilishgan[2].“Metafora” atamasi ilk bor Izokrat tomonidan “Evagorus” asarida qo‘llaganligi haqida ma’lumotlar ham mavjud bo‘lib, bu shuni ko‘rsatadiki, antik davr olimlari ilk bor metaforlarni o‘z asarlarida qo‘llashgan. Metafora (grekcha-ko‘chirish)- biror predmet shaklining, belgisining, harakatining o‘xshash tomonini boshqasiga ko‘chirishdir: 1) shakliy o‘xshashlik-odamning qulog‘i(o‘z ma’nosida)- qozonning qulog‘i(ko‘chma ma’noda) 2) Belgi o‘xshashligi-yengil eshik(o‘z m.) – yengil ta’zim(ko‘chma m.) 3) Harakat o‘xshashligi- ipni uzmoq(o‘z m.)-qarzini uzmoq(ko‘chma m.)[3]. Metaforalar insonlar va buyumlarning o‘xshash jihatlarini ma’lum bir shakllarga asoslangan holda ko‘chirishidir. Hozirga kelib ham ko‘plab olimlar metaforani to‘liqroq o‘rganish uchun ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Ayni terminlar sistemasida metafora XX asrning 60-yillarida o‘rganila boshlagan[4]. Ayni shu davrda metafora keng o‘rganilib uni guruhlarga bo‘lishgan va ularga misollar keltirilib asoslab berilgan. Terminlarning metafralashuvi quyidagilardan iborat:

- Tashqi yoki shakliy o‘xshashlik asosida: daryoning boshi, komyuter sichqonchasi…
- Vazifalarning o‘xshashligi asosida: programma tili, telefon xotirasi…
- Harakat tarsi o‘xshashligi asosida: g‘oyalar oqimi,ma’lumotlar yuklash…
- Rang-tusdagi o‘xshashlik asosida: qaynoq almashtirish, oq oltin…

Shu ma’lumotlarga asoslanib, tarjimonlar metaforlarni asar mazmuniga moslab tarjima qilishi kerak. Chunki so‘zma-so‘z tarjimada so‘z birikmalarining metafora va boshqa ko‘chma ma’noli so‘zlarning ma’nosi o‘zgarib ketib, asar mutolaa qilayotgan o‘quvchiga qiyinlik tug‘dirishi mumkin. Shu sabab tarjimonlar metaforlarning ekvivalentlarini topib o‘z o‘rnida qo‘llashga harakat qilishadi.

Ushbu maqolada tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalaniladi. Frans Kafkaning “Qal’a” asaridagi metaforalar qo‘llangan qismlar tahlil qilinadi va bir metaforaning har xil o‘rinda ma’no farqlanishini ko‘rib chiqiladi.

Tahlil va natijalar

Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda metaforaning o‘rni beqiyosdir. Har bir metafora asarda yuritilayotgan suhbatni yoki jarayon va harakatlarni yanada chiroyli va tushunarli ifodalashga yordam beradi. Frans Kafka falsafiy asarlari bilan mashhurligi barchamizga ma’lum

[1] A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkent: “Ilm Ziyo”. 2013, –193 b.
[2] G.Lakoff and M. Johnsen, Metaphors we live by, London, the university of Chicago press, 2003- 13-b
[3] Usmonova G.M., Usmonova T.Sh. Ona tili, o‘qitish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi.Toshkent:”Metodist Nashriyoti”.2024,-75 b.
[4] H.Dadaboyev,O’zbek terminologiyasi,Toshkent,Akademnashr,2019- 79-b.

bo‘lib, ayni shu maqolada uning “Qal’a” falsafiy asarida uchragan ba’zi metaforalar tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida yosh tarjimon Vafo Fayzullohning Muharrir nashriyotida chiqqan tarjima asaridan foydalanilgan.Asarni tahlil qilar ekanmiz, Vafo Fayzullohning o‘zbek tilining jozibadorligini va ko‘chma ma’noli so‘zlarni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llay olganini anglab yetamiz.

“Quyuq tuman va zulumat qo‘ynida biror-bir chiroqcha-da yilt etib, ulkan qal’adan darak bermasdi[5]”,- ushbu gapdagi “zulumat qo‘ynida” birligini olamiz, bunda qo’yni tungi vaqt ko‘chma ma’nosida, ikkinchi qo‘yni so‘zi insonning quchog‘i o‘z ma’nosida ifodalanmoqda. “Qal’a, hamisha bo‘lish-turishi shunday, sukunatga cho‘mgandi; qorasi esa erib borayotganday ko‘zdan yo‘qolib borar edi;[6]”- qal’ada doimo tinchlik bo‘lishi tasvirini tarjimon xuddi insonlarning sukut saqlashi timsoli bilan berish orqali bu qal’a atrofida hech narsa bo‘lmasligi va hatto ichki qismda ham hech qanday muhim ishlar bajarilmasligi ko‘rsatib berilgan. Qal’ada insonlarga xos sukut saqlash, jim turish holatini berish orqali metaforaning insonlarga xos sifatlarni o‘rinlarga o‘xshatish turidan foydalanilgan. Gap davomida kelgan qorasi so‘zi esa qal’aning umumiy ko‘rinishi haqida gap ketayotganligini tushunib olish qiyin emas aslida, ammo qora so’zi bilamizki avvalo rangni ifodalaydi, bu yerda tarjimon qal’aning umumiy strukturasini qora rangga o‘xshatayotganligi bejizga emas, chunki tarjimon qal’a ichidagi jarayonlar va bajarilayotgan vazifalar xalq uchun ularga yordam berish uchun emas shunchaki boylik to‘plash va o‘zlarini xohishlarini qondirishni o‘ylaydigan aslzodalardan iborat bir jamiyatni ko‘rsatib berish uchun ishlatilgan. “… u ko‘proq hammaning og‘irini ko‘tarishga, g‘amini yeyishga to‘g‘ri keladi[7]”,- g‘am mavhum ot bo‘lib uni yeyish mumkinmi? Xo‘sh, ayni mavhum otlarni xuddi jonlidek tasavvur qilish bu tilshunoslikda- ontologik metafora[8] tushunchasini beradi. Ya’ni g‘am yeyish- insonlarga g‘amxo‘rlik qilish ularga yordam berishni o‘ylash demakdir. Bunda tarjimon yosh qizaloq oila a’zolarini ko‘proq o‘ylab, ularga yordam berishini ochib berishga harakat qilgan. “Og‘irini ko‘tarish” ham metaforadir, chunki o‘g‘ir deganda hajm emas balki tashvishlar, muammolar nazarda tutilgan va yana ko‘tarish harakati insonlarga xos bo‘lib, bu yerda “ko‘tarish” o’z zimmasiga qiyinchiliklarni olib bartaraf qilish degan ma’noda kelmoqda. “K. ona shahrini ahyon-ahyonda eslab qo‘yardi;”- bu qismda “ona shahar” – bu o‘z tug‘ilib o‘sgan shahar ma’nosi berilib, ona shahar xuddi ona kabi aziz va muqaddasligi, uni sog‘inib tez-tez eslash mumkin ekanligi ochib berilgan. Bu jumlada shahar onaga o‘xshatilgan ya’ni belgilar o‘xshashligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa

Tilshunoslikda ishlatilinadigan metaforalar nutqning va asarlarning yanada jiloli va samimiy ekanligini ko‘rsatib beradi. Metaforalarning har bir turi har xil maqsadda ishlatiladi. Masalan, yo‘nalish metaforalari(orientation metaphors) qarama-qarshi yo‘nalishlar so‘zlarini o‘xshatish orqali ko‘rsatib beriladi: “Uni kayfiyati ko‘tarildi” va “Uni kayfiyati tushdi”. Aynan metaforalarning jonlantirish ya’ni inson va jonzot harakat va xarakterlarini predmetlarda jonlantirib ko‘rsatib berish adabiyotimizda juda ko’p uchraydi. Frans Kafkaning “Qal’a” asarida ham bunday o‘rinlar ko‘p bo‘lib, sarlavhaning o‘zi ham metafora ya’ni o‘xshatishdir. “Qal’a” bino so‘zi o‘rnida qo‘llanilganligidan ham ko‘ra ko‘proq, siyosiy va ijtimoiy harakatlar bajarildigan joy, ichkarida xohlaganday harakat qilayotgan aslzodalar-u, tashqari tomonda esa bundan aziyat chekayotgan xalq timsoli bor. Tarjima qilish va unda kerakli til birliklaridan foydalanish juda muhimdir va bu yildan yilga yaxshilanib bormoqda.

[5] Frans Kafka,Qal’a, Toshkent,Muharrir,2023-5-b
[6] Frans Kafka,Qal’a, Toshkent,Muharrir,2023-133-b

[7] Frans Kafka,Qal’a, Toshkent,Muharrir,2023-228-b
[8] G.Lakoff and M. Johnsen, Metaphors we live by, London, the university of Chicago press, 2003-24-b

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova, Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, Ilm Ziyo,2013-592-b.
2. H.Dadaboyev,O'zbek terminologiyasi,Toshkent,Akademnashr,2019- 138-b.
3. Frans Kafka,Qal'a, Toshkent,Muharrir,2023-423-b
4. G.Lakoff and M. Johnsen, Metaphors we live by, London, the university of Chicago press, 2003-193-b
5. Frans Kafka,Qal'a, Toshkent,Muharrir,2023-423-b
6. Frans Kafka,Qal'a, Toshkent,Muharrir,2023-423-b
7. G.Lakoff and M. Johnsen, Metaphors we live by, London, the university of Chicago press, 2003-193-b